

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

RAYIMQULOVA MAFTUNA ABDUXAKIM QIZI

**MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNING
KOGNITIV JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on pedagogical
Sciences**

Rayimqulova Maftuna Abduxakim qizi

Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonida
tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi..... 3

Райимкулова Мафтуна Абдухаким кизи

Методика развития критического мышления в когнитивном процессе
детей дошкольной подготовительной группы..... 23

Rayimqulova Maftuna Abduxakim qizi

Methodology for the development of critical thinking in the cognitive process of
preschool children..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 50

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

RAYIMQULOVA MAFTUNA ABDUXAKIM QIZI

**MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNING
KOGNITIV JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.2PhD/Ped8024 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.indomoi.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djanpelsova Gauxar Erkinovna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "28" "08" kuni soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64 -uy. Tel: (+998 71) 150-01-27; faks: (+998 71) 150-01-27; Ye-xat: mtm-malaka.oshirish@yexat.uz.)


Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (96 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy. Tel: (+998 71) 150-01-27; faks: (+99871) 150-01-27; Ye-xat: mtm-malaka.oshirish@yexat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "18" "08" kuni tarqatildi.
(2026-yil "18" "08" da № 17 raqamli reestr bayonnomasi).




N.Sh. Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor


Sh.M. Otaqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent


K.Dj. Riskulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning amaliy texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etilmoqda.¹ Xalqaro miqyosda ta'lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlar qatorida yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalari, xususan, tanqidiy va refleksiv fikrlash alohida o'rin egallaydi. Jumladan, OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Education 2030" konsepsiyasida murakkab muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish, analitik va kreativ fikrlash kompetensiyalari zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.² Mazkur hujjatda tarbiyalanuvchilarning bilimni passiv qabul qiluvchidan faol tafakkur subyektiga aylanishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonini maktab bosqichidan ham avval — maktabgacha ta'lim tizimidan boshlash zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalar yaratish, shaxsga yo'naltirilgan innovatsion-intellektual ta'lim muhitini tashkil qilish bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.³ Jumladan, Skandinaviya mamlakatlarida bolalarning mustaqil fikr yuritishi va savol berish madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.⁴ AQSh va Yevropa mamlakatlarida erta yoshdan "inquiry-based learning" (izlanishga asoslangan ta'lim) metodlari qo'llanilib, bolalarda tadqiqotchilik va tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllantirilmoqda.⁵ Bu tajribalar tanqidiy fikrlashni maktabgacha ta'limning ajralmas komponenti sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini sifatli o'zgartirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va yangi avlodni zamon talablari asosida tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi — shaxsni nafaqat bilimga ega bo'lgan, balki mustaqil fikrlay oladigan, axborotni tahlil qila oladigan, muammoli vaziyatlarda asosli qaror qabul qila oladigan kompetent shaxs sifatida shakllantirish vazifalari ustuvor etib belgilangan. Natijada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kognitiv faoliyatida tanqidiy fikrlash texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, duch kelayotgan muammoli masalalarni takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

¹ Быкова А.С., Сахарова Н.С., Кириллова И.К. Современные тенденции в трактовке понятия «критическое мышление» // Вестник Оренбургского государственного университета. — 2021. — № 3 (231). — С. 6–11. DOI: 10.25198/1814-6457-231-6.

² OECD (2024). *Curriculum Frameworks and Visualisations: Beyond National Frameworks* — OECD Education Working Papers No. 314. Figure 1 "OECD E2030 Learning Framework (Conceptual framework)". 9-b.

³ Caballero García, P. Á., & Díaz Raña, P. (2018). Inquiry-based learning: an innovative proposal for early childhood education // *Revista de Estilos de Aprendizaje (Journal of Learning Styles)*. — Vol. 11, No. 22. — Pp. 50–82. DOI: 10.55777/rea.v11i22.1080

⁴ Pollarolo, E., Størksen, I., Skarstein, T. H., & Kucirkova, N. (2023). Children's critical thinking skills: perceptions of Norwegian early childhood educators // *European Early Childhood Education Research Journal*. — Vol. 31, No. 2. — Pp. 259–271. DOI: 10.1080/1350293X.2022.2081349.

⁵ Marian, H., & Jackson, C. (2017). Inquiry-based learning: a framework for assessing science in the early years // *Early Child Development and Care*. — Vol. 187, No. 2. — Pp. 221–232. DOI: 10.1080/03004430.2016.1237563.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Ilm-fanni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-6097- son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-iyulda "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-98-son hamda 2025-yil 19-martda "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida" PF-51-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3261-son va 2019-yil 8-mayda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonini takomillashtirishda N.Sh.Abdullaeva, M.Ayupova, M.N.A'zamova, D.R.Babayeva, G.A.Berdaliyeva, M.M.Berdiyeva, G.E.Djanpeisova, F.R.Qodirova, Sh.A.Sodiqova, I.I.To'ychieva, A.E.Xo'jaqulov, N.Xo'jayev, T.Xurvaliyeva, G.Ibragimova, Q.Yo'ldoshev, D.J.Sharipova, Sh.Shodmonova, A.V.Shinlar tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan S.Belova, L.Bojovich, A.V.Butenko, N.A.Gordon, F.O.Kerimov, E.Kryukova, G.M.Kodjaspirova, I.S.Litvinova, A.Markova, N.Morozova, I.V.Mushtavinskaya, E.S.Rapasevich, N.Sadikova, F.Savina, G.V.Sorina, V.Serikov, E.A.Xodos, S.I.Zair-Bek, V.Zaysev, G.Shukinalar bilish jarayonining psixologik-pedagogik imkoniyatlari, bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishda tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

J.A.Aleksandr, D.Bergen, A.Binke, Dj.Bruner, Dj.A.Braus, S.Brukfeld, M.N.Braun, D.Vud, S.I.Veksler, L.S.Vigotskiy, E.Glasser, D.Dyui, D.Djonson, K.Edamson, M.Eynli, E.Martin, K.Meredikt, R.Paul, K.Popper, J.Piaje, R.Pol, S.L.Rubinshteyn, D.Still, Ch.Templn, S.Uolter, D.Xalpern, V.A.Shams, U.Shufile, Dj.Cheffilar kognitiv jarayonlar, bolalar kognitiv faoliyatining yosh xususiyatlari, kognitiv rivojlanish mexanizmlari, tanqidiy fikrlaydigan shaxsga xos bo'lgan xususiyatlar va ularning shaxsning kognitiv rivojlanishiga ta'sirini tadqiq etishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy- axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" nomli tadqiqoti doirasida

amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha tayyorlov yoshidagi tarbiyalanuvchilarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

modelini takomillashtirish;

maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida 367 nafar tarbiyalanuvchilar qamrab olingan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik kuzatuv, tanqidiy-qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, integrativ tahlil, audio-vizual tahlil, faoliyat mahsullarini o'rganish, modellashtirish, so'rovnoma, intervyu, diagnostik test, eksperimental tajriba-sinov, miqdoriy tahlil, matematik statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari muammoli vaziyatlarda fikr xaritasini tuzib taqqoslash tabiiy muhit, ijtimoiy munosabatlar va ijodiy faoliyat orqali real hayot masalalarini muhokama etish hamda muloqot muhitida mustaqil fikr burchaklarini tashkil etish asosida kengaytirilgan;

bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish modeli o'yinli mashqlarni sabab-oqibat zanjiri, mulohaza devori integratsiyalashgan metodik muhitda interfaol vositalardan nutqiy, axloqiy va fikriy ko'nikmalarini yoshga mos shakllantirish hamda keys-stadi, simulyatsiyalar, refleksiya jarayonlarini ta'sirchanligini hayotiy voqealarga moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi interaktiv muhit va izlanish atmosferasida shaxsiy fikrini debatli suhbatlar, ijodiy topshiriqlar, tezkor savol-javoblar orqali ifodalash tanqidiy fikrlashni axloqiy me'yorlarga adaptiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatish metodikasi samaradorligi axborotni idrok etish, ta'lim jarayonini modeli rejalashtirish, muloqotda sabab oqibat zanjirini to'g'ri qurish, fikriy faollik hamda tanqidiy ongni uyg'otish refleksiv mulohazada dinamik o'zgarishlarning

monitoringini yuritish asosida takomillashtirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan metodik tizim asosida muammoli vaziyatlar, fikr xaritalari va real hayotiy masalalarni muhokama qilishga yo'naltirilgan metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning nutqiy faolligi, axloqiy baholashi hamda fikriy mustaqilligini yosh xususiyatlariga mos ravishda rivojlantirish metodikasi hayotiy voqealarga adaptiv muvofiqlashtirishning o'quv-uslubiy ta'minoti sifatida maqsadida "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" darsligi yaratilgan;

debatli suhbatlar, ijodiy topshiriqlar hamda tezkor savol-javoblar elementlarini o'z ichiga olgan interaktiv metodikani o'zida mujassam etgan "Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi" nomli o'quv-metodik qo'llanma tayyorlandi;

maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini baholash mezonlari hamda diagnostika tizimi ishlab chiqilib, tizimning yuqori darajada samarador ekanligi tajriba-sinov ishlari yakunida statistik jihatdan tasdiqlandi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan texnologik metodlar, usullar va tarixiy manbaalardan olingan ma'lumotlarning olinganligi, muammoga falsafiy, metodik, metodologik, pedagogik yondashuvlarga maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv faoliyatini shakllantirishga, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir milliy tajriba, respublika va xorijlik olimlarning ish tajribalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, bir-birini o'rnini to'ldiruvchi metodlarning qo'llanilganligi, tadqiqotning miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir yosh va pedagogik-psixologik o'ziga xosliklarning aniqlashtirilganligi, ushbu jarayon modeli, kognitiv jarayonda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning kompetentlari va funksiyalarining belgilab berilganligi, uni amaliyotda qo'llashning qulay shart-sharoitlari hamda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik modeli, texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari muammoli

vaziyatlarni fikr xaritasini tuzib taqqoslash va tabiiy muhit, ijtimoiy munosabatlar va ijodiy faoliyat orqali real hayot masalalarini muhokama etish hamda muloqot muhitini va mustaqil fikr burchaklarini tashkil etish asosida aniqlash bo'yicha tavsiyalar "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" nomli darslik (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 12-iyundagi 03-33-1556-sonli ma'lumotnomasi) mazmuniga kiritilgan. Natijada maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning tanqidiy fikrlashga motivlari oshirilgan;

maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi o'yinli mashqlarni sabab-oqibat zanjiri, mulohaza devori integratsiyalashgan metodik muhitda interfaol vositalardan nutqiy, axloqiy va fikriy ko'nikmalarini yoshga mos shakllantirish hamda keys-stadi, simulyatsiyalar va refleksiya jarayonlarini shakllanganligi hayotiy voqealarga moslashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" nomli darslik (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 12-iyundagi 03-33- 1556- sonli ma'lumotnomasi) mazmuniga kiritilgan. Natijada maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish imkoni kengaytirilgan;

tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlashni interaktiv muhit vaizlanish atmosferasida shaxsiy fikrini debatli suhbatlar, ijodiy topshiriqlar va tezkor savol-javoblar orqali ifodalash mexanizmlari, qolaversa, tanqidiy fikrlashni axloqiy me'yorlarga adaptiv moslashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar majmuasi "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" nomli darslik (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 12-iyundagi 03-33- 1556-sonli ma'lumotnomasi) mazmuniga kiritilgan. Natijada, maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish modelinini ishlab chiqish samaradorligi oshgan;

tarbiyalanuvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatish metodikasini samaradorligi axborotni idrok etish, ta'lim jarayoni modelini rejalashtirish hamda muloqotda sabab-oqibat zanjirini to'g'ri qurish tizimi orqali tarbiyalanuvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatish metodikasini samaradorligi hamda fikriy faollik, tanqidiy ongini uyg'onishi, refleksiv mulohazada dinamik o'zgarishlarning monitoringini yuritish asosida shakllantirilgan takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025- yil 12-iyundagi 03-33-1556- sonli ma'lumotnomasi) mazmuniga kiritilgan. Natijada, bolalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagogika fanlari bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola shundan 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, 141 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Shaxsning kognitiv rivojlanishi jarayonida maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanishning nazariy-psixologik asoslari”** deb nomlanib, birinchi faslida maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik zaruriyat sifati shakllantirildi hamda maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bayon etildi. Tadqiqotda aniqlanishicha, tayyorlov yoshidagi bolalarda kognitiv jarayonlar jadal rivojlanish bosqichida bo'lib, aynan shu davrda tanqidiy fikrlash texnologiyalarini maqsadli va tizimli qo'llash ularning intellektual faolligi, refleksiv ko'nikmalari hamda bilishga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Biroq amaliyotda mazkur texnologiyalarni yosh va psixofiziologik xususiyatlarga moslashtirish, metodik ta'minotning yetarli emasligi hamda pedagoglarning innovatsion yondashuvga tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq muammolar mavjud. Shu bois tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish va uni kognitiv rivojlanish jarayoniga integratsiyalash ilmiy-pedagogik muammo sifatida asoslab beriladi.

Ikkinchi faslida, maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning bilish jarayonini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning o'rni rivojlanish psixologiyasi va kognitiv pedagogika doirasida konseptual jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, J.Piaje tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasida bola tafakkurining operatsion tuzilmalari bosqichma-bosqich shakllanishi ta'kidlanib, muammoli vaziyatlar orqali fikriy faoliyatni faollashtirish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

L. Vigotsky esa ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida bilish jarayonining yaqin rivojlanish zonasi doirasida kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikda takomillashishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Sharq mutaffakiri Abu Nars Farobiy tanqidiy fikrlash jarayonini tashkil etish bo'yicha bir nechta tavsiyalarni ishlab chiqqan bo'lib, inson haqiqatni yolg'ondan farqini ajrata olishi, xatolarini to'g'irlashi uchun xato ma'lumotlarni inkor eta bilishi, boshqalar mulohazalarini tahlil eta olishi zarurligini aytib o'tgan. Bundan tashqari mazkur faslda mamlakatimiz, MDH va xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Uchinchi faslida, tanqidiy fikrlash maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlantirishning muhim omili sifatida ularning bilish jarayonlari, ijtimoiy faolligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining shakllanishiga tizimli ta'sir ko'rsatishi asoslangan. Mazkur tushuncha pedagogik-psixologik adabiyotlarda shaxsning axborotni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, dalillash va xulosa chiqarish jarayonida ongli, mantiqiy hamda refleksiv yondashuvni namoyon etishi sifatida talqin etiladi.

“Tanqid” atamasi keng qamrovli bo‘lib, murakkab tanqidiy jarayon mazmunini o‘z ichiga oladi. Uning semantik tuzilishida tanqidiy yondashuv, tanqidiy tahlil, tanqidiy baholash, tanqidiy munosabat, tanqidiy fikrlash kabi semalar mavjud. Tanqid so‘zining kelib chiqishi etimologik jihatdan yunon tiliga borib taqaladi. U “Rpiro”- ajratmoq, farqlamoq ma’nolarini anglatgan. Mavjud ilmiy-metodik manbalarda “tanqid” tushunchasining quyidagi jihatlari taqdim etilgan: “tanqid” –tadqiq, muhokama, tahlil, fikr bildirish va tekshirish, baholash, muayyan mazmunni inkor etmoq, kamchiliklarni aniqlash demakdir. “Tanqidiy fikrlash” ta’rifini shakllantirish juda qiyin. Sababi bu boradagi fikrlar va baholarning xilma- xilligidir. Bir tomondan, tanqidiy fikrlash bahs-munozarani nazarda tutadi va shuning uchun ko‘pchilik tomonidan salbiy deb baholanadi, hamma narsani shubha ostiga qo‘yadi va mojaroga olib keladi.

1-jadval

“Tanqidiy fikrlash” tushunchasining ta’rifi

K.Popper	Tanqidiy fikrlashning asosini o‘zgartirishga, tekshirishga, rad etishga tayyor munosabat tashkil etadi.
E.Glasser	Tanqidiy fikrlash bu qarorlarning haqiqiyliigi, harakatlarni tasdiqlash va ularning asoslilik darajasini baholash, qo‘llanilishi chegarasining bir turini topish qobiliyati.
D.Jonson	Aqliy faoliyatning o‘ziga xos turi bo‘lib, u odamga o‘ziga taklif qilingan nuqtai nazar yoki xatti-harakatlar modeli haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini beradi.
S.I.Zair-Bek, I.V.Mushtavinskaya G.V.Sorina	Bu inson tafakkurining tayanch nuqtasi, g‘oyalar va ma’lumotlar bilan o‘zaro ta’sir qilishning tabiiy usuli. Tanqidiy fikrlash o‘z aqliy faoliyati, tushunchalar, mulohazalar, xulosalar, savollar bilan ishlash, analitik qobiliyatlarni rivojlantirish, shuningdek boshqa odamlarning o‘xshash qobiliyatlarini baholash qobiliyatini aks ettirish qobiliyatining mavjudligini nazarda tutadi.
Q.Yo‘ldoshev	Tanqidiy fikrlash o‘quvchining (jumladan, bolalarning) voqelikni turli nuqtai nazardan ko‘ra bilishi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashi va o‘z fikrini asoslab bera olish qobiliyatidir.
N.Xo‘jayev	Tanqidiy fikrlash – bu shaxsning mavjud bilim va tajribaga tayangan holda axborotni tahlil qilish, solishtirish, dalillash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan ongli tafakkur faoliyatidir.
Mualliflik ta’rifi	bu bolaning atrof-muhitdagi hodisa va voqealarni kuzatish, savol qo‘yish, taqqoslash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, turli fikrlarni solishtirish hamda o‘z xulosasini mustaqil va asosli ravishda ifodalashga yo‘naltirilgan kognitiv faoliyati majmuasidir.

Dissertatsiyaning “**Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasidan foydalanishni takomillashtirishning amaliy-texnologik tizimi**” deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni yoritib berilgan, maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish modeli shakllantirilgan hamda maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda kognitiv jarayonida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari hamda asosiy yo‘nalishlari bayon etilgan.

2-jadval

6–7 yoshli bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik yo‘nalishlari

№	Metodik yo‘nalish	Mazmuni	Asosiy metod va usullar	Kutilayotgan natija	Baholash mezonlari
1.	Muammoli-ta’limiy yo‘nalish	Muammoli vaziyatlar orqali fikrni faollashtirish;	Muammoli savol, “Nima uchun?”	Muammoni anglaydi va yechim taklif qiladi;	Muammoni tushunish va mustaqil fikr bildirish darajasi;
2.	Sabab-oqibatli fikrlash yo‘nalishi	Hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunish;	Sabab-oqibat zanjiri, “Agar... unda...” metodi;	Mantiqiy bog‘lanishni tuza oladi;	Sabab va natijani to‘g‘ri ko‘rsatishi;
3.	Vizual-tizimlashtiruvchi yo‘nalish	Fikrni grafik shaklda ifodalash;	Fikr xaritasi (mind map);	Fikrni tizimlashtira oladi;	G‘oyalarni tartibli joylashtirishi;
4.	Interaktiv-muloqotli yo‘nalish	Fikrni asoslab ifodalash;	Debat, mini-munozara, tezkor savol-javob;	O‘z fikrini asoslaydi;	Dalillash va muloqot madaniyati;
5.	Refleksiv yo‘nalish	O‘z fikrini baholash va xulosa qilish;	Refleksiya savollari, “Mulohaza devori”;	O‘z faoliyatini tahlil qiladi;	Xulosa chiqarish;

6–7 yoshli bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maktabgacha ta’limning muhim metodik vazifalaridan biri bo‘lib, u bolaning maktab ta’limiga intellektual va shaxsiy tayyorgarligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu yosh davrida tafakkur konkret-amaliy xarakterdan mantiqiy umumlashtirish bosqichiga o‘ta boshlaydi, shu bois tanqidiy fikrlashni shakllantirish tizimli va maqsadli metodik yondashuvni talab etadi. Mazkur yondashuv 5 ta metodik yo‘nalishni o‘z ichiga oladi (2-jadval).

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini

rivojlantirishni ta'minlashda mavjud o'quv dasturlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim metodik vazifa hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalda qo'llanilayotgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining kunlik mashg'ulotlar mazmuniga tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni integratsiya qilish mazkur jarayonni tizimli va barqaror yo'lga qo'yish imkonini

beradi. Bunda alohida "tanqidiy fikrlash" mashg'ulotini joriy etish emas, balki mavjud ta'lim sohalari doirasida mazmuniy boyitish tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Integratsiya jarayoni, avvalo, dasturda belgilangan rivojlanish sohalari kesimida amalga oshiriladi. Maktabga tayyorlov guruhida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng katta metodik imkoniyatlar "Bilish jarayonini rivojlantirish" sohasi hamda uning kichik sohalari — elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, atrof-muhit bilan tanishtirish va mantiqiy fikrlash elementlarini rivojlantirish yo'nalishlarida mavjud. Mazkur kichik sohalar mazmunan tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash kabi aqliy amallarni talab qilgani bois, tanqidiy fikrlash komponentlarini tabiiy ravishda integratsiya qilish imkonini beradi.

Masalan, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarida oddiy hisoblash yoki sanash topshiriqlarini berish bilan cheklanmasdan, bolalarga "Nima uchun bu javob to'g'ri?", "Boshqa usul bilan yechish mumkinmi?", "Qaysi variant mantiqan mos kelmaydi va nima sababdan?" kabi savollarni qo'shish orqali refleksiv va dalillovchi fikrlash faollashtiriladi. Bu yondashuv reproduktiv harakatni produktiv intellektual faoliyatga aylantiradi.

"Ilm-fan va tabiat" markazida esa muammoli vaziyatli savollarni qo'llash samarali hisoblanadi. Masalan, tabiiy hodisalarni o'rganishda bolalarga tayyor ma'lumotni berish o'rniga, kuzatish, taxmin qilish va xulosa chiqarishga yo'naltirilgan topshiriqlar taklif etiladi. "Agar o'simlikka suv quyilmasa nima bo'ladi?", "Nima uchun qishda ayrim qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi?" kabi savollar sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashni talab qiladi. Bu esa tanqidiy fikrlashning asosiy komponenti — mantiqiy bog'lanishlarni anglashni rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash topshiriqlarini "Nutq va muloqot" sohasiga integratsiya qilish ham muhim metodik ahamiyatga ega. Ertak yoki hikoya ustida ishlash jarayonida qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, muqobil yechimlarni taklif qilish, voqealar rivojini taxmin qilish kabi topshiriqlar bolalarda analitik va baholovchi tafakkurni shakllantiradi.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasida esa rol o'yinlar va muammoli vaziyatlarni modellashtirish orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish mumkin.

Masalan, konfliktli vaziyatni hal etish bo'yicha muhokama tashkil etish, turli qaror variantlarini taqqoslash va eng maqbulini tanlash jarayoni bolalarda ijtimoiy tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda hamkorlikda fikr almashish, o'z nuqtai nazarini dalillash va boshqalarning fikrini hurmat qilish kompetensiyalari mustahkamlanadi.

Quyida maktabga tayyorlov yoshidagi (6–7 yoshli) bolalarda tanqidiy fikrlash

qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarning namunaviy majmuasi keltiriladi. Mazkur topshiriqlar maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan rivojlanish sohalari (bilish jarayonini rivojlantirish, nutq va muloqot, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, ijodiy faoliyat) mazmuniga integratsiya qilingan holda ishlab chiqilgan hamda ularning barchasi muammoli vaziyat – izlanish – refleksiya izchilligiga tayangan.

1. Krossens: "Fasllar mantiqiy zanjiri". (Mart oyi. Oy mavzusi: Go'zal bahor, 2-hafta: Mavsumiy o'zgarishlar) (Sohasi: Bilish jarayonini rivojlantirish – atrof-muhit bilan tanishtirish). Krossens texnologiyasi maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda "Fasllar" mavzusi doirasida tabiat hodisalari o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni anglash, ketma-ketlikni aniqlash hamda sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga yo'naltirilgan vizual-tahliliy metod hisoblanadi. Ushbu metod rasmlar asosida mantiqiy zanjir tuzish orqali bolalarning kuzatuvchanligi, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalarga 3x3 formatdagi rasmlar krossens taqdim etiladi (quyosh, qor, barg to'kilishi, gullar ochilishi, yomg'ir, qaldirg'och, qorbo'ron, hosil, soyabon). Vazifa – rasmlar orasidagi mantiqiy bog'lanishni aniqlash va markaziy rasmni izohlash. Bola fasllar almashinuvi va sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladi. Refleksiya bosqichida "Qaysi rasm ortiqcha bo'lishi mumkin va nima sababdan?" savoli qo'yiladi.

2. Mnemotable: "Ertak voqealari ketma-ketligi". (Nutq o'stirish, o'qish va yozish malakalari faoliyat turida). Mashhur ertak voqealari ramziy belgilar orqali jadvalga joylashtiriladi. Bolalar belgilar asosida voqealar izchilligini tiklaydi hamda qahramon xatti-harakatlarini baholaydi. "Qahramon boshqacha yo'l tutganda nima bo'lardi?" savoli orqali muqobil fikrlash rag'batlantiriladi.

3. 6 ta fikrlovchi qalpoqcha: "Do'stlik vaziyati". (Mazkur texnologiyani sentyabr oyining 4-hafta mavzusi ya'ni "Men va mening do'stlarim" mavzusi doirasida ijtimoiy-hissiy kichik sohasini rivojlantirish uchun qo'lladik). Muammoli vaziyat: ikki bola o'yinchoqni bo'lisha olmayapti. Bolalar navbatma-navbat "oq qalpoq" (fakt), "qizil qalpoq" (hissiyot), "qora qalpoq" (muammo), "sariq qalpoq" (ijobiy tomon), "yashil qalpoq" (yechim), "ko'k qalpoq" (xulosa) nuqtai nazaridan fikr bildiradi. Bu usul ijtimoiy tanqidiy fikrlash va empatiyani rivojlantiradi.

4. Mind map: "Transport turlari". (Noyabr oyi 1-hafta mavzusi hisoblangan "Havo, suv va yer usti transporti" mavzusi doirasida atrof-muhit bilan tanishtirish kichik sohasini rivojlantirish uchun qo'lladik). Mind map (fikr xaritasi) texnologiyasi maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda "Transport turlari" mavzusi doirasida ijtimoiy tasavvurlarni tizimli shakllantirish, tasniflash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan vizual-mantiqiy metod hisoblanadi. Ushbu metod tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni grafikli tarzda aks ettirish orqali bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini mantiqiy tafakkur bilan uyg'unlashtiradi.

Mazkur texnologiya markaziy tushuncha asosida tarmoqlanuvchi tuzilmani nazarda tutadi. Mashg'ulot jarayonida doska yoki katta qog'oz markaziga "Transport turlari" tushunchasi joylashtiriladi. Undan asosiy tarmoqlar chiqariladi: yer transporti,

havo transporti, suv transporti. Har bir tarmoq doirasida mos vositalar (masalan, avtomobil, avtobus, poyezd; samolyot, vertolyot; kema, qayiq va boshqalar) tasvir yoki soʻz koʻrinishida joylashtiriladi. Keyingi bosqichda har bir transport turining vazifasi, harakatlanish muhiti, tezligi va jamiyat hayotidagi ahamiyati aniqlashtiriladi. Bolalar har birining vazifasi va xavfsizlik qoidalarini izohlaydi. “Qaysi transport turi ekologik jihatdan xavfsizroq?” savoli orqali baholovchi fikrlash shakllantiriladi.

5. Krossens + Mind map integratsiyasi: “Kasblar”. (Sohasi: Ijtimoiy tasavvurlarni rivojlantirish). Mazkur integrativ texnologiya maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda kasblar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarni tizimli shakllantirish, ularning funksional ahamiyatini anglash hamda tanqidiy fikrlash elementlarini rivojlantirishga qaratilgan. Texnologiya ikki metod — krossens (vizual-mantiqiy bogʻlanish maydoni) va fikr xaritasi (mind map)ni oʻzaro uygʻunlashtirish orqali bilish faoliyatining tahliliy, taqqoslovchi va umumlashtiruvchi bosqichlarini izchil tashkil etadi.

Krossens metodida 3x3 yoki 4x4 formatdagi tasvirlar maydoni qoʻllanilib, unda turli kasb egalari, mehnat vositalari, ish joyi va faoliyat natijalari aks ettiriladi. Bolalarga rasmlar oʻrtasidagi mazmuniy va sabab-oqibat bogʻlanishlarini aniqlash, ortiqcha elementni topish, mantiqiy ketma-ketlikni tiklash kabi topshiriqlar beriladi. Ushbu jarayon tahlil, solishtirish, muhim belgilarni ajratish va asoslash koʻnikmalarini shakllantiradi. Masalan, “shifokor – dori – bemor – kasalxona” bogʻlanishini izohlash yoki “quruvchi – gʻisht – uy” tizimini tushuntirish orqali bola kasbning ijtimoiy vazifasini anglay boshlaydi.

Keyingi bosqichda mind map metodi asosida olingan bilimlar tizimlashtiriladi. Markazga “Kasblar” tushunchasi joylashtirilib, undan tarmoqlar chiqariladi (tibbiyot, taʼlim, qurilish, xizmat koʻrsatish, transport va boshqalar). Har bir tarmoq doirasida kasb nomi, vazifasi, mehnat quroli, ish joyi va jamiyatdagi ahamiyati koʻrsatiladi. Fikr xaritasi bolalarning tasniflash va umumlashtirish malakasini rivojlantirib, parchalanib olingan bilimlarni yaxlit tizimga keltiradi.

6. Mnemotable + 6 qalpoqcha: “Sogʻlom turmush tarzi”. (Mazkur texnologiyani dekabr oyining 2-hafta mavzusi “Sogʻ tanda-sogʻlom aql” mavzusi doirasida jismoniy rivojlanish va ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohalari uchun) Jadvalda sogʻlom va nosogʻlom odatlar ramziy koʻrsatiladi. Bolalar ularni ajratadi, soʻng “6 qalpoqcha” usuli orqali har bir odatning ijobiy va salbiy jihatlarini muhokama qiladi hamda xulosa chiqaradi.

Mazkur topshiriqlar tizimi tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlari – muammoni anglash, tahlil qilish, taqqoslash, baholash, muqobil fikr ilgari surish va refleksiyaning kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi mazmuniga integrativ tarzda singdirilgan boʻlib, alohida fan yoki qoʻshimcha mashgʻulot talab qilmaydi. Metodik jihatdan mazkur topshiriqlar oʻyin elementlari bilan boyitilganligi sababli maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning yosh vapsixologik xususiyatlariga mos keladi hamda ularning maktab taʼlimiga intellektual tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bola shaxsiy fikrini ifodalashning uch vositasi mavjud. Debatli suhbatlar — bola oʻz nuqtai nazarini himoya qilishni va oʻzgalarnikini baholashni oʻrganadigan asosiy vositadir. Ijodiy topshiriqlar — yagona toʻgʻri javobi boʻlmagan, ochiq topshiriqlar bolani bir masalaning koʻp yechimini izlashga undaydi. Tezkor savol-javoblar — qisqa, kutilmagan va oʻylashga undovchi savollar oʻyin surʼatida beriladi.


3-jadval

Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositalarining namunaviy qoʻllanishi

Metodik vosita	Namunaviy topshiriq yoki savol	Bolaning fikrlash harakati	Adaptiv axloqiy qoida	Rivojlanadigan tanqidiy malaka
Debatli suhbatlar	“Bogʻchaga piyoda kelgan yaxshim yoki mashinada? Nega?” — bolalar ikki guruhga boʻlinib oʻz tomonini himoya qiladi.	Bola oʻz tomoni foydasiga dalil topadi, qarshi guruhni tinglaydi, dalillarni oʻzaro qiyoslaydi va xulosa chiqaradi.	Gapirish navbatiga rioya qilish; boshqani boʻlmaslik; fikrga eʼtiroz bildirish, shaxsni haqorat qilmaslik.	Dalillash, qiyoslash, oʻz fikrini ochiq himoya qilish.
Ijodiy topshiriqlar	“Bu qutidan yana nima yasash mumkin?” yoki “Ushbu ertak boshqacha tugasa, nima boʻlar edi?”	Bola bir necha xil variant oʻylab topadi, gʻayrioddiy yechimlarni sinaydi, oʻz gʻoyasini izohlaydi.	Har bir gʻoya qadrli, “kulgili” yoki “notoʻgʻri” deb baholanmaydi; oʻzganing ijodini masxara qilmaslik.	Koʻp variantli (divergent) fikrlash, ijodiy jurʼat, original gʻoya.
Tezkor savol-javoblar	“Agar yomgʻir yogʻmasa nima boʻladi?”, “Nima uchun qush ucha oladi-yu, biz ucha olmaymiz?”	Bola tez taxmin qiladi, sabab izlaydi, qisqa va aniq javob beradi, oʻzi ham savol qoʻyadi.	Har savol qadrli; oʻylamay javob bermaslik; doʻstining javobini kutib turish.	Tez va moslashuvchan fikrlash, savol qoʻya olish, fikrni aniq ifodalash.

Tadqiqot ishi doirasida “Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish modeli” shakllantirildi (1-rasm). Bundan tashqari, oʻquv-tarbiyaviy jarayonda bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi metodlarni takomillashtirishga eʼtibor qaratilgan.

